

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**ELEKTR TEXNIKASI, ELEKTR MEXANIKASI VA  
ELEKTR TEXNOLOGIYALARI**

**“INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA  
YARATILGAN ELEKTR MASHINALARINING  
ZAMONAVIY YUTUQLARI”**

**TOSHKENT-2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**  
**OLIY TALIM TİZİMİ PEDAGOG VA RABAR KADRLARINI QAYTA**  
**TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI ORSHIRISHNI TASHKIL**  
**ETISH BOSH ILMİY - METODİK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI**  
**PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI**  
**OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**ELEKTR TEXNIKASI, ELEKTR MEXANIKASI VA ELEKTR**  
**TEXNOLOGIYALARİ**

yo'nalishi

**"INNOVATION TECHNOLOGIES BASED ON THE CREATIVITY OF ELECTRICAL MACHINES"**

moduli bo'yicha

**U Q U V – U S L U B I Y M A J M U A**

Tuzuvchi: prof. N.B. Pirmatov

Toshkent - 2023 yil

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagি 391-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dastur asosida tayyorlandi

- Tuzuvchi:** TDTU, "Elektr mashinalari" kafedrasи professori,  
t.f.d. N.B. Pirmatov
- Taqrizchi:** TDTrU, professor, t.f.n., U.T. Berdiyev

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2023 yil 27-sentyabirdagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## **MUNDARIJA**

I.	Ishchi dasturi.....	5
II.	Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	11
III.	Nazariy materiallar.....	17
IV	Amaliy mazmuni.....	mashg'ulot 48
V	Keyslar banki.....	57
VI	Glossariy .....	63
VII	Adabiyotlar ro'yxati.....	66

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **Kirish**

Dastur O'zbekiston Prezidentining 2015-yil 12- iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'lifning normativ-huquqiy asoslari va qonunchilik normalari, ilg'or talim texnologiyalari va pedagogik mahorat, talim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amal xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativeligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu dastur energetika tarmoqlari uchun yangi energiya tejamlovchi texnologiyalari va usullarini yaratish uchun qo'llaniladigan energiya tejamkor avtomatlashtirilgan elektr mashinalari va transformatorlarning energetik ko'rsatgichlarini optimallash mezonlarini tahlil qilish va qo'llash sohalarini kengaytirish, tarkibiy tizimlarini zamonaviy boshqariluvchi o'zgartgichlar asosida tuzish, umumsanoat asinxron motorlarining energetic ko'rsatkichlarini yuklanishning turli qiymatlarida va ishchi mexanizmlarning tezligini rostlashning iqtisodiy va energiya samarador usullarini va energiya tejamlovchi texnologiyalarini yaratish muammolari bayon etilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

"Innovasion texnologiyalar asosida yaratilgan elektr mashinalarining zamonaviy yutuklari" modulining maqsadlari: energetika tarmoqlari uchun energiya tejamlovchi elektr mashinalari va transformatorlarning energetik ko'rsatkichlarini

va ish rejimlarini optimallash orqali energiyani tejashning nazariy asoslarini yaratish, funksional sxemalarini ishlab chiqish va bu texnik ishlamalarni amaliyotda qo'llash usullarini tahlil qilish kabi malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

"Innovasion texnologiyalar asosida yaratilgan elektr mashinalarining zamonaviy yutuklari" modulining vazifalari:

- elektr mashinalar va transformatorlarni energetik ko'rsatkichlarini va asosiy tavsiflarini, turlari va imkoniyatlarini таҳлил қилиш;

- elektr machinalar va transformlarning funksional sxemalarini tuzish va tahlil qilish;

-tinglovchilarga energiya tejamlovchi elektr mashinalar va transformtorlarning yangi turlari va ularda energiya tejashning samarali usullarini yaratishda zarur bo'lган bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

"Innovasion texnologiyalar asosida yaratilgan elektr mashinalarining zamonaviy yutuklari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- transformatorlarning zamonaviy turlari;

- transformatorlarni sovitishning zamonaviy turlari;

- asinxron motorlarning va zamonaviy turlari haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

- energiya tejamkor elektr mashinalar va transformatorlarning energetik ko'rsatgichlarini optimallash mezonlari turlari va umkoniyatlarini tahlil qilish;

- energiya tejamkor elektr mashinalar va transformatorlarni ishga tushirish, elektr mashinalarining tezligini rostlash va tormozlash jarayonlarida energiya tejash usullarini bilish;

- energiya tejamkor elektr mashinalar va transformatorlarning funktsional sxemalarini tuzish va tahlil qilish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;

- energiya tejamkor elektr mashinalar va transformatorlarning yangi turlarini o'rghanish;

- energiya tejamkor elektr mashinalar va transformatorlarda energiya tejashning samarali usullarini o'rganish va qo'llash **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Innovasion texnologiyalar asosida yaratilgan elektr mashinalarining zamonaviy yutuklari” moduli ma'ruza va amaliy mashulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, express-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interaktiv ta'lim uslalashlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Innovasion texnologiyalar asosida yaratilgan elektr mashinalarining zamonaviy yutuklari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Elektr yuritmalarda energiya tejamkor texnologiyalar” o'quv moduli bilan uzviy bog'langan holda pedagoklarning energetika uchun yangi energiya tejamlovchi texnologiyalari va usullarini yaratish bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning olyi ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orgali tinglovchilar energetika tarmoqlari uchun yangi energiya tejamlovchi tehnologiyalar va usullarni o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

<b>Nº</b>	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat</b>
-----------	------------------------	---

		Hammasi	Jami	Nazariy	Amaliy mashgulot	Ko'chma mashgulot	Mustaqil ish
1.	<b>Transformatorlarning zamonaviy turlari.</b> Energetika tizimlarda qo'llaniladigan energiya tejamkor transformtorlar. Energiya tejamkor transformatorlarda energiya tejash usullari. Energiya tejamkor transformatorlarning turlari. O'zbekistonda energiya tejamkorlikni amalga oshirish bo'yicha hukumat qarorlari.	2	2	2			
2	<b>Transformatorlarni sovitishning zamonaviy turlari.</b> Energiya tejamkor asinxron motorlarning turlari. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yangi energiya tejamkor asinxron motorlari.	2	2	2			
3.	<b>Asinxron motorlarning zamonaviy turlari.</b> Energiya tejamkor asinxron motorlar va ularning ekspluatatsiyasi. Asinxron motorlarning zamonaviy turlari. Asinxron mortorlarning ish rejimlari va energiya tejash.	10	10	2	2	6	
4.	<b>Elektr motorlarning turli ish rejimlarida energiya tejash. Elektr motorlarning energetik ko'rsatgichlari.</b> Elektr motorlarining salt ishslash, qisqa tutashuv va yuklama rejimlari.	4	4		4		
5.	<b>Sinxron mashinalarning zamonaviy turlari.</b> Krioturbogeneratorlar, asinxronlashtirilgan sinxron turbogeneratorlar, ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron mashinalar, o'tao'tkazuvchan generatorlar.	4	4	2	2		
6.	<b>Elektr mashinalarini sovitishning zamonaviy turlari.</b> Turli xil turdag'i sovitish tizimlari.	2	2		2		
	<b>Jami:</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	<b>6</b>	

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mazu: Transformatorlarning zamonaviy turlari.

Energetika tizimlarda qo'llaniladigan energiya tejamkor transformtorlar.

Energiya tejamkor transformatorlarda energiya tejash usullari. Energiya tejamkor

transformatorlarning turlari. O'zbekistonda energiya tejamkorlikni amalga oshirish bo'yicha hukumat qarorlari.

## **2-mavzu: Transformatorlarni sovitishning zamonaviy turlari.**

Energiya tejamkor asinxron motorlarning turlari. Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yangi energiya tejamkor asinxron motorlari.

## **3- mavzu: Asinxron motorlarning zamonaviy turlari.**

Asinxron motorlarning zamonaviy turlari. Asinxron mortorlarning ish rejimlari va energiya tejash.

## **4- mavzu: Sinxron mashinalarning zamonaviy turlari.**

Krioturbogeneratorlar, asinxronlashtirilgan sinxron turbogeneratorlar, ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron mashinalar, o'tao'tkazuvchan generatorlar.

# **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

## **1-amaliy mashg'ulot. Transformatorning parametrlarini hisoblash.**

Transformatorning salt ishslash va qisqa tutashuv rejimlardagi parametrlari aniqlansin.

## **2-amaliy mashg'ulot. Elektr motorlarning yuklama rejimlaridagi parametrlarini hisoblash.**

Elektr motorlarining nominal  $M_{nom}$  va maksimal  $M_{max}$  momentlar qiymatlarini, nominal  $s_{nom}$  va kritik  $s_{kr}$  sirpanishlarni, shuningdek motorning boshlang'ich ishga tushirish momenti maksimalga teng bo'lishi uchun rotor faza chulg'amiga ulanishi kerak bo'ladigan rezistor qarshiligi aniqlanadi.

## **3-amaliy mashg'ulot. Asinxron motorning parametrlarini hisoblash**

Asinxron motorning parametrlari aniqlansin.

## **4-amaliy mashg'ulot. Sinxron motorning parametrlarini hisoblash**

Sinxron motorning aylanish chastotasi, chulg'amidagi nominal va ishga tushirish toklari, maksimal, nominal, sinxron, ishga tushirish momentlarini hamda sinxronizmga kirayotgandagi ( $s = 5\%$ ) asinxron momentni aniqlanadi.

## **5-amaliy mashg'ulot. Sinxron motorning issiqlik hisobi**

Sinxron motorning issiqlik hisobini amalga oshirilib parametrlari aniqlanadi.

### **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

**Mavzu: Asinxron motorlarning dolzarb muammolari va zamonaviy turlari.**

Ko'chma mashg'ulotda tinglovchilarni Toshkent shaxar "NVA" qo'shma korxonasiga yoki "Turonelektromontaj" AJ ga olib borish ko'zda tutilgan. Mavzu yuzasidan yangi texnika texnologiyalar va amaliy ishlarni bajarish rejalashtirilgan.

### **TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI**

Ta'limdi tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazard tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limgning tashkil etish shakllaridan foydalilanadi:

- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot;
- ko'chma mashg'ulot.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishslash** - Bunda o'qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishslash** - bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishslashda (2 tadan - 8 tagacha ishtiroychi) faol rol o'ynaydigan ishtiroychilarga qaratilgan ta'limdi tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlararo shaklga bo'lish mumkin. Bir turdag'i guruhli ish o'quv guruhlari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida-alohida mustail vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TALIM METODLARI**

### **"BILAMAN - BILISHNI XOHLAYMAN - BILIB OLDIM" METODI**

**B-B-B metodi** - Bilaman / Bilishni xohlayman / Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib boorish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. "Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil / kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limini to'ldiradilar.

Metodning maqsadi - ta'lim oluvchilarning refleksiv qobiliyatlarini, yangi mavzuni o'rGANISH, ushbu mavzuga o'Z fikrini bildirish va uning mazmunini anglash qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Ushbu metod talabalarning o'qituvchi va boshqa tinglovchilar bilan hamkorlikda ishlashga va tanqidiy fikrlashga undaydi.

B-B-B metodini yangi mavzuni o'tishdan avval qo'llash va mavzuga oid adabiyotlar ro'yxatini va boshqa manbalarni aytib o'tish maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzuga qo'llanilishi:**

Talabalarda mavzu bo'yicha quyidagi savol beriladi va talabalar savollarga qarab jadvalni to'ldiradilar.


#### **Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun xalqaro talablar**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Elektr mashinalariga qo'yilgan talablar. 2. Transformatorlarga qo'yil-gan talablar.	1. Elektr mashinalarining xarakteristikalarini 2. Transformatorlarning xarakteristikalarini	1. Elektr mashinalari qo'yilgan talablar 2. Transformator-larga qo'yilgan talablar 3. Elektr mashinalari va transformatorlar-ning xarakteristika-larini

#### “SWOT-TAHLIL” METODI..

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
	Imkoniyatlar "O" — OPPORTUNITIES	Tusiqlar "T" — THREATS
Tashqi   muxit		
Ichki   muxit	Afzaliklar "S" — STRENGTH	Kamchiliklar "W" — WEAKNESS



### **Mavzuga qo'llanilishi:**

Elektr mashinalari uchun funksional sxemasining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Elektr mashinalari uchun funksional sxemasi foydalanishning kuchli tomonlar	Tashkil etuvchi elementlarining Open source (ochiq kodli), sonining ko'pligi
<b>W</b>	Elektr mashinalar uchun foydalanishning kuchsiz tomonlari	Elektr mashinaning virtual mashina orqali ishlashi
<b>O</b>	Elektr mashinalar foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Elementlarining o'zaro bog'lanishi imkoniyatlari keng
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Ma'lumotlar xavfsizligining to'laqonli ta'minlanmaganligi

## «XULOSALASH» (REZYUME, VEER) METODI

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rghanishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammolijiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rghaniladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatlari rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



rening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatiladi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o'zmulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlari bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Mavzuga qo'llanilishi:

Elektr mashinalar					
O'zgarmas		O'zgaruvchan		Maxsus	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

### “ASSESSMENT” METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholas h, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga y o’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’n alishlar

(test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlar ni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar , amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini ba holash, shuningdek, o’zo’zinibaholash maqsadida individual shaklda foydalanish tav siya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlar idan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

### Mavzuga qo’llanilishi:

Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

TEST:

Asinxron motorlarning stator chulg’ami qanday materialdan tayyorlanadi?

- Mis, po’lat
- Po’lat
- Mis

TEST:

Asinxron motorlarning vali qanday materialdan tayyorlanadi?

- Aluminiy, mis

- Po’lat
- Mis

## “INSERT” METODI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o’quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o’zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod o’quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o’taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o’qituvchi mashg’ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni
  - yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko’rinishida tayyorlaydi;
  - yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki ta qdimot ko’rinishida namoyish etiladi
- –;ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o’z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yo ki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-magit	2-matin	3-matin
“V” – tannish malumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+”bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushuna rsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi.

### Mavzuga qo’llanilishi:

#### Standart va yangi seriya asinxron motorlardagi asosiy quvvat isroflarining qiyosiy tavsifi va taqsimlanishi

№	Asosiy quvvat isroflari	Standart asinxron motor (% larda)	Yangi seriyadagi asinxron motor (% larda)
1	Stator va rotor chulg’amlaridagi aktiv quvvat isroflari	50	47
2	Magnit tizimidagi quvvat isroflari	30	25
3	Mexanik quvvat isroflari	5	5
4	Qo’shimcha quvvat isroflari	15	8
5	Umumiy quvvat isroflari	100	85

#### Standart va yangi seriyadagi asinxron motorlar energetik ko’rsatkichlarining qiyosiy tavsiflari

Motoring nominal quvvati, kVt	Standart bo'yicha ishlab chiq arilayotgan motor		Yangi seriyada ishlab chiq arilayotgan motor	
	FIK, %	$\cos \varphi$	FIK, %	$\cos \varphi$
0,75	76	0,71	81,5	0,84
18,7	89	0,83	91,0	0,865

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu: Transformatorlarning zamonaviy turlari**

##### **Reja:**

1. Transformatorlarning tasnifi, ularga qo'yiladiga asosiy talablar, gabaritlari va nominal kattaliklari
2. Zamonaviy energiya tejamkor transformatorlarning turlari.
3. Transformatorlarning ish rejimlari.
4. Transformatorlarning quvvat isroflari.

**Tayanch so'z va iboralar:** magnit o'tkazgich, chulg'amlar, yuklama, salt ishslash va qisqa tutashuv rejimlar, foydali ish koeffitsiyenti, quvvat koeffitsiyenti.

#### **1.Transformatorlarning tasnifi**

Bajaradigan vazifasigako'ra transformatorlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) kuch transformatorlari;
- 2) maxsus transformatorlar.

Kuch transformatorlari o'z navbatida: umumiylashtirish va sohaviy turlarga bo'linadi.

Elektr energiyani uzatish, qabul qilish hamda ishlatishga mo'ljallangan elektr tarmoqlari va uskunalarida elektr energiyani o'zgartirish (kuchlanishni oshirish yo'ki kamaytirish) vazifasini bajaradigan transformatorni kuch transformatori deyiladi. Bu toifaga: quvvati 6,3 kV·A va undan katta bo'lgan uch fazali transformatorlar hamda quvvati 5 kV·A va undan katta bo'lgan bir fazali transformatorlar kiradi.

Normal sharoitda ishlayotgan elektr tarmog'iga ulash uchun, yoxud maxsus ish sharoiti, yuklamaning xarakteri yoki ish rejimi bilan farq qilmaydigan energiya iste'molchilarini bevosita ta'minlashga tayyorlangan transformatorlarni umumi maqsadli kuch transformatorlari deyiladi. Transformatorlar fazalar soniga ko'ra: bir, uch va ko'p fazali (sohaviy); chulg'amlar soniga ko'ra: ikki, uch va ko'p chulg'amlari tur larga bo'linadi.

Agar transformatorning har fazasida uchta [yuqori kuchlanishli (YUK), o'rta kuchlanishli (O'K) va past kuchlanishli (PK)] elektr jihatdan ulanmagan chulg'amlari bo'lsa, bunday holda uch chulg'amlari transformator deyiladi.

Agar transformatorda  $U_1N < U_2N$  bo'lsa oshiruvchi,  $U_1N > U_2N$  bo'lganida esa – pasaytiruvchi transformator deyiladi.

Elektr energiyani transformatorning qaysi chulg'amiga berilishiga qarab transformatorni oshiruvchi yoki pasaytiruvchi sifatida foydalanish mumkinligi uning qaytarlik xossasidir. Nominal quvvati va kuchlanishlariga bog'liq ravishda kuch transformatorlari va avto-transformatorlarining gabaritlarga ajratilishi 1.1-jadvalda ko'rsatilgan.

### **Kuch transformatorlariga qo'yiladigan asosiy talablar.**

Elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarilayotgan kuch transformatorlari ishonchli lik, tejamlilik, chidamlilik va boshqa muhim jihatlari bilan jahon bozorida yuksak raqobatbardosh bo'lishi zarur. Shu sababli mazkur transformatorlarga qo'yidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- a) ishlab chiqarishdava ishlatishda tejamli bo'lishi; b) ishlatishda ishonchlik;
- c) isroflar standartda belgilangan me'yordan oshmasligi; d) parallel ulash shartlarini qanoatlantirishi; e) me'yordan ortiqcha qizib ketmasligi; f) kuchlanishni rostlashga imkon berishi; g) transformatorni ishlatish jarayonida ayrim sabablarga ko'ra sodir bo'ladigan qisqa muddatli o'ta kuchlanishlarga va kam muddatli qisqa tutashuvdagagi ancha katta bo'lgan toklar ta'siriga bardosh berishi zarur.

#### **1.1-jadval. Kuch transformatorlari va avtotransformatorlarining gabaritlari**

<i>Gabarit raqamlari</i>	Kuch transformatorlari va avtotransformatorlarining standartda belgilangan qatorga mos keluvchi quvvat va kuchlanishlari	
	<i>Nominal quvvati</i> ( $S_N$ ), kV·A	<i>Nominal kuchlanishi</i> ( $U_N$ ), kV
<b>I</b>	$S_N < 100$	$U_N \leq 35$
<b>II</b>	$100 \leq S_N < 1000$	$U_N \leq 35$
<b>III</b>	$1000 \leq S_N < 6300$	$U_N \leq 35$
<b>IV</b>	$S_N \geq 6300$	$U_N \leq 35$
<b>V</b>	$S_N < 32\ 000$	$U_N \leq 110$
<b>VI</b>	$32\ 000 \leq S_N < 80\ 000$	$U_N \leq 330$
<b>VII</b>	$80\ 000 \leq S_N < 200\ 000$	$U_N \leq 330$

<b>VIII</b>	$S_N \geq 200\ 000$	$U_N \geq 330$
-------------	---------------------	----------------

**Transformatorning nominal kattaliklari.** Transformatorlar standart talablariga mos holda texnik shartlar bo'yicha tayyorlanadi va elektr energiyani o'zgartirish bo'yicha ma'lum vazifalarni bajarish uchun belgilanadi. Bu sharoitlardagi transformatorning ishi nominal kattaliklar bilan xarakterlanadi va ular elektr jihozlari kataloglarida hamda transformatorga mahkamlangan pasport taxtachada quyidagilar ko'rsatilgan bo'ladi:

Transformatorning to'la nominal quvvati V·A yoki kV·A da ko'rsatiladi:

a) bir fazali ikki chulg'amli uchun –  $S_{1N} = U_{1N} \cdot I_{1N}$ ; b) uch fazali ikki chulg'amli uchun –  $S_{1N} = \sqrt{3} U_{1N} I_{1N} = 3U_{1Nf} I_{1Nf}$ .

Transformatorlarda FIK juda ham katta bo'lganligidan ikki chulg'amli transformatorda birlamchi ( $S_{1N}$ ) va ikkilamchi ( $S_{2N}$ ) chulg'am nominal quvvatlarini taxminan bir xil bo'ladi, ya'ni  $S_{1N} \approx S_{2N}$ .

*Nominal kuchlanishi* deganda har bitta chulg'amning liniya kuchlanishi tushuniladi. Ikkilamchi chulg'amning nominal kuchlanishi uchun  $U_{2N} = U_{2(0)}$  qabul qilinadi. Transformatorning nominal toklari deganda quvvati  $S_1 = S_2 = S_N$  va kuchlanishlari ( $U_{1N}$  va  $U_{2N}$ ) bo'yicha hisoblangan 1- va 2-chulg'amlarning liniya qiymatlari tushuniladi. *Bulardan tashqari:* 1) nominal chastota  $f_N$ ; 2) fazalar soni m; 3) chulg'amlarning ulanish sxemasi va guruhi; 4) qisqa tutashuv kuchlanishi  $u_{qt.(\%)}$ ; 5) transformatorning tipi; 6) standart nomeri; 7) sovitish usuli va boshqa ayrim ma'lumotlar keltiriladi.

2. Yuqori energiya sarf-xarajatlariga nisbatan butun dunyo miqyosidagi tendentsiya bilan bog'liq holda, barcha elektr transformatorlarining parkini o'z ichiga olgan tarqatuvchi transformatorlarda energiya yo'qotishlarini kamaytirish juda muhimdir.

Dunyoning yetakchi ishlab chiqaruvchilarining transformatorlarining texnik tavsiflari va elektroenergiya narxining o'zgarishi asosida, OAO METZ nomidagi Kozlova yangi TMG12 seriyasining energiya tejaydigan transformatorlari TMG ishlab chiqarishni rivojlantirish va rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu transformatorlar MDHning barcha umumiy kuchlanishli transformatorlaridan bo'sh va qisqa muddatli yo'qotishlarning eng past darajasiga ega va Yevropa elektr texnikasi qo'mitasining (CENELEC) tavsiyalariga muvofiq tanlanadi. Bundan tashqari, sozlangan ovoz kuchini kamaytirishga ega. Shunday qilib, ushbu seriyadagi transformatorlar energiya tejaydigan va kam shovqinli.

Yetakchi jahon ishlab chiqaruvchilari (Siemens, ABB Shirkat) tomonidan ishlab transformatorlari, bu ketma-analoglar.

G'arbiy Yevropada, transformatorlar sotib olish uchun tender uzoq transformator hayoti davomida hisobga narxi zarar olib, narxlar hisoblash uchun yondashuvni foydalangan, bu transformatorlar ham juda katta qiziqish Belarus namoyish va rus (Moskva, Novosibirsk) korxona. Ushbu ketma-ket transformatorlari texnik xususiyatlari (2009 yilda ketma-ket ishlab chiqarish o'zlashtirildi)- TMG12-100 / 10-U1 (HL1) TMG12-160 / 10-U1 (HL1) TMG12-250 / 10-U1 (HL1) TMG12-400 / 10-U1 (HL1) TMG12-630 / 10-U1 (HL1) va TMG12-1000 / 10-U1 (HL1) iste'molchilarga ularning qiymati TMG12-1250 / 10-U1 (HL1), nisbatan chiqimlarni qoplash davri e'lon hajmi hisobga mavjud elektr tariflar va tariflarni olib, turli yuk chartlarining da TMG11 transformatorlar, ilovada berilgan.

Quyi yo'qotishlar va shovqin moddiy joylash texnologiyasi bilan erishiladi, lekin transformator qiymati ( $\Delta St$ ) ortishi, shunday qilib, tez qoplanadi.

Misol uchun, 0,7 kunlik o'rtacha yuk uchun ham:

• 400 kVA quvvat uchun:

1. Narx (taxminan 19,6 tys.ros. Rub., Bir transformator TMG11 bilan solishtirganda) farq haqida 1 yil ichida o'zi uchun to'laydi.

2. Yillik energiyani tejash 6,2 ming kVt / soatni tashkil qiladi

• 630 kVA quvvat uchun:

1. Narx (taxminan 24,1 ming rus. rubli., Bir transformator TMG11 bilan solishtirganda) farq taxminan 1,45 yil berur.

2. Yillik energiyani tejash 5,3 ming kVt • soatni tashkil qiladi

• 1000 kVA kuchlanish uchun:

1. Narx farqb (taxminan 34,9 ming rus. rubli., Bir transformator bilan solishtirganda TMG11 taxminan 2.83 yil tannarxini qoplaydi.
2. Ortiq 3,9 ming kVt • soat yillik energiya tejash

Illyustratsiya -Rossiya yil 400 kVA haqida 1200 transformatorlar va 1900 kVA transformatorlar 630 va 1000 transformatorlar 1000 KVA sotilgan. TMG11 o'rniga TMG12 transformatorlarini sotib olib, eng muhimi konservativ hisob-kitoblarga qaraganda deyarli 21,4 mln. KVt / soatni tejash mumkin yilda.

Energiya ortiq 11 mini-inshootlarni ish bilan mutanosib bo'ladi (365 kun (bir yilga to'liq kuch faoliyat 260 kVt mini-gidrotexnik quvvati) kabi haqida 22,8 million kVt • soat ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, ularning qurilish haqida  $10 \times 520$  ming turadi. AQSh \$ = 5,2 mln. AQSh dollari, xizmat ko'rsatish muddati davomida talab qilinadi1.

1200 + 1900 uchun + 1000 TMG12 transformatorlar + 1900 haqida 104 million. Gru + 1000 TMG11 transformatorlar 1200 uchun ko'proq to'lash kerak bo'ladi. rublb. (yoki 3,6 mln. AQSh dollari) ko'proq. Bu miqdor har yili ortiq 67 mln. Rubl ta'sir keltirman 1200+ 1900+ 1000 transformatorlari chiqimlarni qoplash muddati oxirida 1.55 yillarda qoplaydi bo'ladi. Har yili, xizmat muddati (eng kamida 25 yil) davomida ular milliy iqtisodiyotning o'z mahsulotlariga yuqorida aytilgan 10 mini-gidrotexnik deyarli ko'p kuch tejash imkonini beradi. Va buning uchun qo'shimcha xarajatlar, yer uchastkalarini ajratish va h.k. (mini-GES hollarida bo'lgani kabi) talab qilinmaydi.

Ushbu ko'rsatkichlar elektr energiyasining narxiga materiallarga qaraganda ancha yuqori bo'lgan narxlarda yuqori transformatorlarning o'rtacha yuki bilan yanada jozibador bo'ladi.

3. Agar transformatorning ikkilamchi chulg'amiga yuklama (Zyu) ulansa (1-rasmda kalit «K» ulangan hol), EYuK Ye2 ta'sirida shu chulg'amdan I2 tok o'tib, MYuK I2w2 ni vujudga keltiradi. Bu MYuK asosiy magnit oqimga aks ta'sir qilishdan tashqari kuch chiziqlari nomagnit yo'llar orqali faqat shu chulg'am o'ramlari bilan ilashadigan tarqoq magnit oqim F□2 ni ham hosil qiladi. Ikkilamchi

chulg'am  $MYUK I_2w_2$  ning asosiy magnit oqimiga ko'rsatadigan ta'-sirini Lents qoidasi yordamida tushuntirish mumkin.

**Lents qoidasining ta'rifi:** «*O'zgarayotgan magnit oqim ilashgan berk o'tkazuvchi kontur (zanjir)da shunday yo'nalishdagi  $EYU$ K hosil bo'ladi-ki, uning vujudga keltirgan toki va u bilan bog'liq bo'lgan mexanik kuchlar magnit oqimning o'zgarishiga aks ta'sir qiladi».*

Demak, agar ikkilamchi chulg'amga aktiv-induktiv yuklama ulansa, undan o'tayotgan tokning reaktiv tashkil etuvchisi  $I_{2r}$  vujudga keltirgan  $MYU$ K  $I_{2rw_2}$  transformatorning birlamchi chulg'am  $MYU$ K  $I_{0w_1}$  ga teskari yo'nalgan bo'lib, asosiy magnit oqim F ni kamaytirishga, aktiv-sig'imiy yuklamada esa  $I_{0w_1}$  ga mos yo'nalgan bo'lib, asosiy magnit oqimni oshirishga intiladi.

Aktiv-induktiv yuklamada natijaviy oqimning kamayishi birlamchi chul-g'amda  $EYU$ K  $E_1$  ning kamayishiga olib keladi. Natijada, elektr tarmog'inining kuchlanishi  $U_1 = U_{1N} = \text{const}$  bo'lganligidan  $U_1 - E_1 = \Delta E$  tufayli hosil bo'lgan birlamchi chulg'amdag'i tokning qiymati  $I_0$  dan  $I_1$  gacha, ya'ni yuklama tokining magnitsizlovchi ta'siri to'la kompensatsiya bo'lgunga qadar oshishiga sababchi bo'ladi va natijada transformatordag'i magnit oqim o'zining dastlabki qiymatiga taxminan tenglashadi.

Shunday qilib, ikkilamchi chulg'amiga yuklama ulangan tranformatorda magnit oqim F to'la tok qonuniga binoan birlamchi va ikkilamchi chulg'am  $MYU$ K larining birgalikdagi ta'siri tufayli yaratilib, ularning ta'sir etuvchi qiymatlarining geometrik yig'indisi salt ishlashdagi birlamchi chulg'am  $MYU$ K  $I_{0w_1}$  ga taxminan teng bo'ladi:

$$\underline{I}_{1w_1} + \underline{I}_{2w_2} \approx \underline{I}_{0w_1}. \quad (1)$$

Bu ifodani **transformatorning  $MYU$ K lari muvozanat tenglamasi** deyiladi. Bunda:  $I_{1w_1}$  – yuklama ulangan transformatorning birlamchi chulg'a-mida vujudga keladigan  $MYU$ K;  $I_{2w_2}$  – ikkilamchi chulg'amda hosil bo'ladigan  $MYU$ K;  $I_{0w_1}$  – salt ishlayotgan transformator birlamchi chulg'amina  $MYU$ K.

(1) tenglamaning ikkala tomonini  $w_1$  ga bo'lamiz va  $\underline{I}_2(w_2/w_1) = \underline{I}'_2$  belgilashdan keyin hosil bo'lgan tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$\underline{I}_1 \approx \underline{I}_0 + (-\underline{I}'_2). \quad (2)$$

Bu ifoda transformatorning ***toklar muvozanat tenglamasidir.***

(2) dan quyidagi xulosa kelib chiqadi: transformator birlamchi chulg'a-mining toki  $I_1$  2 ta tokning geometrik yig'indisidan iborat ekan:

- 1)  $I_0$  – birlamchi chulg'amda MYuK  $I_0w_1$  ni hosil qilib magnit o'tkazgichda asosiy magnit oqimni vujudga keltiradi;
- 2)  $(-I'_2)$  – yuklama tokining ta'siri tufayli birlamchi chulg'amdagi tok shu kattalikka oshadi va uning birlamchi chulg'amda hosil qilgan  $(-I'_2w_1)$  MYuK, Lents qoidasiga binoan ikkilamchi chulg'am MYuK  $I_2w_2$  ning ta'sirini kompensatsiya qiladi.

Natijaviy (asosiy) magnit oqimning maksimal qiymati  $F_{max}$  ni aniqlashda magnit zanjirlari uchun  $Om$  qonunidan foydalanamiz:

$$F_{max} = \sqrt{2} (\underline{I}_1 w_1 + \underline{I}_2 w_2) / r_m . \quad (3)$$

Magnit oqimning bu qiymatini (3.3) formuladan ham aniqlash mumkin.

Bu holda (3.8) dagi  $U_1 = E_1$  ni hisobga olib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$F_{max} \approx U_1 / (4,44 f w_1) . \quad (4)$$

Demak, birlamchi chulg'amga berilgan kuchlanish  $U_1$  va uning chastotasi  $f=const$  bo'lganda transformator magnit o'tkazgichidagi asosiy oqim  $F$  ikkilamchi chulg'amga ulangan yuklananing qiymatiga bog'liq emas ekanligi transformatorning muhim xossalardan biridir.

Birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar elektr zanjirlari uchun EYuK va kuchlanishlar muvozanat tenglamalari tegishlicha ularning ta'sir etuvchi qiy-matlari orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\left. \begin{aligned} \underline{U}_1 &= -\underline{E}_1 + j\underline{I}_1 x_1 + \underline{I}_1 r_1, \\ \underline{U}_2 &= -\underline{E}_2 + j\underline{I}_2 x_2 + \underline{I}_2 r_2. \end{aligned} \right\} \quad (5)$$

Kuch transformatorlarida yuklama tokining nominal va unga yaqin qiy-matlarda birlamchi chulg'amdagi kuchlanish tushishi ( $\Delta U_1 = I_1 r_1 + I_1 x_1$ ) nominal kuchlanish  $U_{1N}$  ning taxminan 2÷5 foizidan oshmaydi. Shu sababli transformatorga

yuklama ulangan rejimda ham fizik jarayonni oydinlashtirish maqsadida  $\Delta U_1 \approx 0$  deyilganda,  $|U_1| \approx |E_1|$  ga ega bo'lamiz.

Transformatorning salt ishslashdagi MYuK  $I_0 w_1$  uning normal yuklama bilan ishlagandagi MYuK  $I_1 w_1$  ning taxminan  $0,5 \div 3,0$  (ya'ni juda kam) foizini tashkil etganligidan (4.1) tenglikdagi  $I_0 w_1 \approx 0$  deb qabul qilinsa, jarayonning fizik ma'nosini oydinlashtirishga imkon yaratiladi. Bunday cheklanmada chulg'amlardagi toklar, ular vujudga keltirgan MYuK lar o'zaro muvozanatlashadigan ravishda yo'nalgan bo'ladi, ya'ni

$$I_2 = -I_1 (w_1 / w_2), \quad (6)$$

bundan quyidagi nisbatni yozish mumkin:

$$I_1 / I_2 \approx w_2 / w_1. \quad (7)$$

(7) dan, YuK va PK chulg'amlardagi toklar nisbati ularning o'ramlari soni nisbatiga teskari mutanosibda bo'lar ekan, degan xulosa kelib chiqadi.

Zamonaviy kuch transformatorlarining FIK katta ( $\eta = 0,97 \div 0,99$ ) bo'lganligidan, yuklama ulangan hol uchun fizik jarayonning mohiyatini ochish maqsadida birlamchi va ikkilamchi chulg'amlardagi elektr quvvatlarni bir-biriga tenglaganda ( $I_1 U_1 \approx I_2 U_2$ ) quyidagi nisbatlar tengligi kelib chiqadi:

$$I_1 / I_2 \approx U_2 / U_1, \quad (8)$$

demak, transformatorda toklar uning kuchlanishiga teskari mutanosiblikda bo'lar ekan.

4.Elektr uskunalar (60%) va quvvat bashorat mumkin ta'minoti va energiya transformatorlar uchun yanada talab ishonchlilagini oshirish va energiya tejash tomon global tendentsiyasi bu zarurligi yomonlashuvi yuqori darjasida hisobga olib, biz sizga TMG12 tanlash kerak, deb maslaxat beramiz2.

#### **TMG11 va TMG12 seriyali transformatorlarning energiya tejash va ekologik ta'sirini baholash uchun parametrlari qiyosiy jadvali:**

	Xarakteristikalar	TMG11-400/10-U1(XL1)	TMG12-400/10-U1(XL1)
1	Quvvati, $kV \cdot A$	630	630
2	Salt ishslash quvvat isrofi, $kVt$	0,83	0,61


3	Qisqa tutashuv quvvat isrofi, kVt	5,6	4,6
4	Shovqin darajasi, dBA	70	61

	Xarakteristikalar	TMG11-630/10-U1(XL1)	TMG12-630/10-U1(XL1)
1	Quvvati, kV·A	630	630
2	Salt ishlash quvvat isrofi, kVt	1,06	0,8
3	Qisqa tutashuv quvvat isrofi, kVt	7,45	6,75
4	Shovqin darajasi, dBA	70	61

	Xarakteristikasi	TMG11-1000/10-U1(XL1)	TMG12-1000/10-U1(XL1)
1	Quvvati, kV·A	1000	1000
2	Salt ishlash quvvat isrofi, kVt	1,4	1,1
3	Qisqa tutashuv quvvat isrofi, kVt	10,8	10,5
4	Shovqin darajasi, dBA	73	64

2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.

**ЗАВИСИМОСТЬ СРОКА ОКУПАЕМОСТИ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТРАНСФОРМАТОРЫ ТМГ12 ПО ОТНОШЕНИЮ К ТРАНСФОРМАТОРАМ ТМГ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СРЕДНЕЙ НАГРУЗКИ**



Boshqa mumkin bo'lgan sxemalarning ta'sirini hisoblash uchun bazalar rolanti va qisqa tutashuvning halok bo'lishiga olib keladi. Ma'lumot uchun har bir soatda yo'qotish (kVt) transformatorga ajratiladi:

$$R = R_{xx} + \beta^2 \cdot R_{kz},$$

bu yerda  $P_{xx}$  - ishlaydigan yo'qotishlar,  $kV_t$ ;  $R_{kz}$  - qisqa tutashuvdag'i yo'qotishlar,  $kV_t$ ;  $\beta$  - transformatorning yuk koeffitsienti.

### **Nazorat savollari**

1. Transformator deb qanday qurilmaga aytildi?
2. Energiya tejamkor transformatorlarning qanday tiplarini bilasiz?
3. O'zbekistonda energiya tejamkorlikni amalga oshirish bo'yicha qanday hukumat qarorlari qabul qilingan?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: "O'zbekiston". 2017.- 592 b.

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA.  
-2014.-391 b.
3. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.
4. J.B.Gupta. Theory & Performanse of Elektrical Mashine. Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.
5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

### **2-mavzu: Transformatorlarni sovitishning zamonaviy turlari**

#### **Reja:**

1. Transformatorlarni ishlatishdagi talablar.
2. Kuch transformatorlarnig sovitish tizimi.

**Tayanch so'z va iboralar:** transformator, avtotransformator, chulg'amlar, foydali ish koeffitsienti, quvvat koeffitsienti, sovitish tizimi.

### **1. Transformatorlarni ishlatishdagi talablar**

Transformatorlarni ishlatalish jarayonida ularni ishonchli ishlashi ta'minlanishi lozim. Yuklamalar, kuchlanish me' yori, transformatorlarning alohida qismlarining harorati, moyning harakteristikalari va izolyasiya parametrlari o'rnatilgan me'yorlari chegarisida bulishi kerak. Sovutish tizimi, kuchlanishni rostlash va boshqa tarkibiy qismlari shuningdek, doimiy vositalari bo'l mish yong'in o'chirish, moy qabul qilgich, moy chiqqishlar va moy to'plagichlar soz bo'lishi kerak.

Yong'in o'chirish tizimi avtomatikasi bir yilda bir marotaba sinovdan o'tishi kerak.

Ochiq taqsimlash qurilmalaridagi transformatorlar baklarida stansiya yoki podstansiya tomonidan belgilangan tartib raqamlari, hamda ushbu raqamlar eshiklarda va kameralarda shuningdek transformator punktlarining ichida bo'lishi kerak.

Ochiq taqsimlash qurilmalarida joylashgan transformatorlar tabiat hamda moy

ta'sirlariga chidamli och rangli bo'yoqda bo'yalmog'i lozim.

Transformatorlarnisovutish tizimlari ikkita manbadan ta'minlanishi, moyni majburiy aylanishi tizimli transformatorlarda esa zahirani qayta o'lash tizimi orqali ulanishi kerak.

Kuchlanishni yuklama ostida rostlash qurilmasi avtomatik holatda ishga shay holatda bo'lishi kerak. Transformator kuchlanish ostida bo'lganda kuchlanishni yuklama ostida rostlash qurilmasini qulda uzib ularash man etiladi.

Havo va moyni majburiy aylanishi (DS) hamda suv va moyni majburiy aylanishli (S) tizimlari transformatorlarda ishga tushganda (o'chirilganda) transformator bilan bir vaqtning o'zida ishga tushishi (o'chirilishi) kerak. Moyni majburiy aylanishi yuklamadan qatiy nazar uzlusiz bo'lishi,sovutish tizimini ishga tushirish (o'chirish) tartibi ishlab chiqaruvchi yo'riqnomasi bo'yicha aniqlanishi kerak.



1 – rasm. ТЦ-630000/330 tipli kuch transformatori zovodning  
tajriba zalida

Transformatorlarning havoni majburiy aylanishli va moyni tabiiy aylanish ( $\Delta$ ) tizimlaridagi ventilyatorlarning motorlari moy harorati  $55^{\circ}\text{C}$  etganda yoki nominal yuklamada ishga tushmog‘i hamda moy harorati  $50^{\circ}\text{C}$  tushganda yuklama toki nominal tokdan kichik bo‘lsa avtomatik tarzda o‘chirilishi kerak.

Moy-suvli sovutish tizimli transformatorlarning kengaytirgichlaridagi moy sathini eng kam miqdorida moy sovutgichlaridagi moy bosimi quvurlardan aylanayotgan suv bosimidan  $10 \text{ kPa}$  dan kam bo‘lmasligi kerak.

Elektr stansiya va nimstansiyalariga o‘rnatilgan uch fazali transformatorlar eng ko‘p tarqalgan, chunki ularda jami quvvati xuddi shuncha bo‘lgan uchta bir fazali transformatorlarga qaraganda isroflar  $12\text{-}15\%$ , aktiv materiallar sarfi bilan qiymati  $20\text{-}25\%$  kam.


## 2. Kuch transformatorlarnig sovitish tizimi

Ferromagnit po‘lat o‘zakning bo‘lmasligi esa mashinaning xarakteristikalariga yakor reaksiyasining ta’siri sezilarsiz bo‘ladi. Oddiy mashina-larga qaraganda o‘ta o‘tkazuvchan chulg‘amli mashinalarda havo oralig‘ida magnit induksiyasining qiymatini  $3 \div 4$  marta, chizig‘iy yuklamani esa  $1 \div 2$  marta oshirish mumkin bo‘ladi, natijada mashinaning aktiv hajmi  $4,5 \div 8$  martagacha kichiklashadi.

Elektr mashinalarida o‘ta o‘tkazuvchan materiallardan tashqari krioo‘tkazuvchan materialarni ham qo‘llash ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bun-day material juda kuchli sovitilganda o‘zining qarshiliginini kamaytiradi, lekin o‘ta o‘tkazuvchanlik xossaga ega bo‘lmaydi. Krioo‘tkazuvchan materialga tozalangan alyuminiy misol bo‘ladi. Alyuminiy 20 K temperaturada o‘zining qarshiliginini  $10^4$  marta kamaytiradi. Krioo‘tkazuvchan materialarni transformatorlar chulg‘amlarini tayyorlash uchun ham ishlatish mumkin.

### **Katta quvvatli istiqbolli sinxron mashinalar.**

**Turbogeneratorlar.** Hozirgi vaqtida elektr mashinasozligidagi muammolardan biri katta quvvatli elektr mashinalarini yaratishdir. Bu muammoni amalga oshirish uchun elektr mashinasozligida sifatli elektrotexnik va konstruksion materiallarni va effektiv sovitish sistemalarini qo‘llash lozim bo‘ladi.

Bu sohada turli xorijiy va MDH mamlakatlarida katta tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida Rossiyada quvvati 500 va 800 MW, aylanish chastotasi 3000 ayl/min bo‘lgan turbogeneratorlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. 1976 yildan buyon Rossiyada quvvati 1200 MW bo‘lgan ikki qutbli turbogenerator Kostroma IES da ishlatib kelinmoqda. Bu turbogene-ratorning stator chulg‘ami bevosita suv bilan, rotor chulg‘ami esa vodorod bi-lan sovitiladi. Xuddi shuningdek GFR va Shveytsariya davlatlarida quvvati 1200 MV·A bo‘lgan ikki qutbli turbogenerator, AQSh da esa quvvati 1200 MV·A bo‘lgan ikki qutbli turbogenerator va quvvati 1120 MV·A bo‘lgan ikki qutbli turbogeneratori yaratilgan. AES da qo‘llaniladigan quvvati 500 MW bo‘lgan to‘rt qutbli turbogeneratori Rossiyada yaratilgan bo‘lib, uning chul-g‘amlari suv bilan sovitiladi. Xuddi shuningdek Rossiyada quvvati 1000 MW bo‘lgan to‘rt qutbli turbogeneratori ham yaratilib, uning stator chulg‘ami suv bilan rotor chulg‘ami esa vodorod bilan sovitiladi. Fransiyada esa eng katta quvvatli 1480 MW, GFR da esa quvvatlari 1360 va 1200 MW bo‘lgan to‘rt qutbli turbogeneratorlari yaratilgan. Xuddi shunday quvvatli to‘rt qutbli turbogeneratorlar AŞSh da ham tayyorlangan. Hozirgi vaqtida Rossiyada

chulg‘amlari suv bilan sovitiladigan quvvati 800 MW aylanish chastotasi esa 3000 ayl/min bo‘lgan ikkita ikki qutbli turbogenerator ishlatilmoqda.

**Gidrogeneratorlar.** Keyingi vaqtarda Rossiyada Krasnoyarsk GES uchun quvvati 590 MV·A, aylanish chastotasi 90 ayl/min va Sayano-Shushensk GES uchun esa quvvati 711 MV·A, aylanish chastotasi 142 ayl/min bo‘lgan gidrogeneratorlar yaratilgan bo‘lib, stator chulg‘ami suv bilan rotor chulg‘ami esa

### **1-jadval**

<b>Generatorlarning turi</b>	<b>Alstom, Fransiya</b>	<b>Vestin gauz, AŠSh</b>	<b>Toshi-ba Xita-chi</b>	<b>Elektro-sila, Rossiya</b>	<b>UETM, Rossiya; Simens FRG</b>
Šuvvati, MV·A/MW	500 / 475	615/600	700/630	711/640	353/300
Aylanish chastotasi, ayl/min	200	72	112,5	142,8	200
Kuchlanishi, V	15	15	18	15,75	15,75
Stator chulg‘amini sovitish sistemasi	havo	havo	havo	suv	suv
Rotor chulg‘amini sovitish sistemasi	havo	havo	havo	havo	suv
Šuvvat koefitsienti FIK, %	0,95 —	0,95 98,37	0,9 98	0,9 98,3	0,85 98,3

1-jadvalga izoh: «–» ishora ma’lumot noma’lum ekanligini bildiradi.

havo bilan sovitiladi. Bundan tashqari Nurek GES (Tojikiston) uchun ishlab chiqarilgan, quvvati 353 MV·A, aylanish chastotasi 200 ayl/min bo‘lgan gidrogenerator ishlatilmoqda. Generatorning stator va rotor chulg‘amlari suv bilan, stator po‘lat o‘zagi esa havo bilan sovitiladi. Rogun GES (Tojikiston) uchun quvvati 667 MV·A, aylanish chastotasi 167 ayl/min bo‘lgan va stator hamda rotor chulg‘amlari suv bilan sovitiladigan gidrogeneratorlar yaratilgan.

Shvetsiyada quvvati 190 MV·A, aylanish chastotasi 375 ayl/min bo‘lgan gidrogeneratori yaratilgan. Agarda bu generator faqat suv bilan sovitilsa uning quvvatini 1000 MW ga oshirish mumkin bo‘lar ekan. Eng katta quv-vatlgi gidrogeneratorlarning ayrim parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

**Sinxron kompensatorlari.** Hozirgi vaqtida Rossiyada vodorod bilan sovitiladigan quvvati 160 MV·A bo‘lgan sinxron kompensatorlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Suv bilan sovitiladigan 350 MV·A quvvatli sin-xron kompensatorlarni ishlab chiqarish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shvetsiyadagi firmalardan birida suv bilan sovitiladigan quvvati 345 MV·A, aylanish chastotasi 900 ayl/min bo‘lgan sinxron kompensator yaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.
2. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA.  
-2014.-391 b.
3. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.
- 4.J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.

## **IV. AMALIY MASHG’ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg’ulot. Transformatoring parametrlarini hisoblash.**

**Maqsad:** Transformatoring parametrlarini hisoblash.

**Vazifa:** 1 – jadvalda uch fazali moyli transformatorlarning ba’zi parametrlarining ma’lumotlari keltirilgan: nominal quvvat  $S_{nom}$ ; birlamchi va ikkilamchi nominal kuchlanish  $U_{1nom}, U_{2nom}$ ; birlamchi chulg‘amning nominal toki  $I_{1nom}$ ; qisqa tutashuv kuchlanishi  $u_{qt}$  va uning aktiv  $u_{qta}$  hamda reaktiv  $u_{qtr}$  tashkil etuvchilar; salt ishslash toki  $i_0$ ; salt ishslash va qisqa tutashiv quvvatlari  $P_0, P_{qt}$ ; salt ishslash va qisqa tutashiv quvvat koefitsiyenti  $\cos \varphi_0, \cos \varphi_{qt}$ ; qisqa tutashuv

qarshiligi  $Z_{qt}$  va uning aktiv  $r_{qt}$  hamda reaktiv  $x_{qt}$  tashkil etuvchilari; transformator yuklamasining quvvat koeffitsiyenti  $\cos \varphi_2 = 0,8$  (yuklama xarakteri - induktiv) bo‘lganda, yuklama  $\Delta U_{nom}$  ga kamaytirilgandagi kuchlanishning nominal o‘zgarishi. Transformator chulg‘amlari  $Y/Y$  ulangan. Transformatorning jadvalda keltirilmagan parametrlari qiymatlarini aniqlash talab etiladi.

### Yechish TM-25/10 transformator varianti.

1 – jadval

Parametrlar	Transformator tipi					
	TM- 25/10	TM- 40/6	TM- 63/10	TM- 100/6	TM- 160/10	TM- 250/6
$S_{nom}, kVA$	25	-	63	-		250
$U_{1nom}, kV$	10	6	10	6	10	-
$u_{qt}, \%$	4,5	-	4,5	-	4,5	-
$i_0, \%$	3,2	-	4,5	2,6	2,4	-
$P_0, kW$	0,13	0,175	-	-	0,51	-
$P_{qt}, kW$	0,6	0,88	-	-	2,65	-
$I_{1nom}, A$	-	3,87	-	9,6	9,2	24
$I_0, A$	-	0,115	0,16	-	-	-
$U_{qt}, kV$	-	0,28	0,45	-	-	-
$Z_{qt}, \Omega$	-	-	-	-	-	-
$\cos \varphi_{qt}$	-	-	-	0,30	-	-
$\sin \varphi_{qt}$	-	-	-	-	-	-
$\cos \varphi_0$	-	-	-	-	-	0,13
$U_{qt.a}, \%$		-	-	1,95	-	-
$U_{qt.r}, \%$	-	-	-	6,2	-	-
$r_{qt}, \Omega$	-	-	-	-	-	0,0036
$x_{qt}, \Omega$	-	-	-	-	-	0,01
$\Delta U_{nom}, \%$	-	-	-	-	-	-

#### 1. Birlamchi chulg‘amdagi nominal tok

$$I_{2nom} = \frac{S_{nom}}{(\sqrt{3} \cdot U_{1nom})} = \frac{25}{(1,73 \cdot 10)} = 1,44 A.$$

#### 2. Salt ishslash toki

$$I_0 = \left( \frac{i_0}{100} \right) \cdot I_{1nom} = \left( \frac{3,2}{100} \right) \cdot 1,44 = 0,046 A.$$

3. Salt ishlash quvvat koeffitsiyenti

$$\cos \varphi_0 = \frac{P_0}{(\sqrt{3} \cdot I_0 \cdot U_{1nom})} = \frac{0,13}{(1,73 \cdot 0,046 \cdot 10)} = 0,16.$$

4. Qisqa tutashuv kuchlanishi

$$U_{qt} = \frac{U_{qt}}{100} \cdot \frac{U_{1nom}}{\sqrt{3}} = \frac{4,5}{100} \cdot \frac{10}{1,73} = 0,26 \text{ kV}.$$

5. Qisqa tutashuv quvvat koeffitsiyenti

$$\cos \varphi_{qt} = \frac{P_{qt}}{(3 \cdot I_{1nom} \cdot U_{qt})} = \frac{0,6}{(3 \cdot 1,44 \cdot 0,26)} = 0,53; \sin \varphi_{qt} = 0,85.$$

6. Qisqa tutashuv kuchlanishining aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari

$$u_{qt.a} = u_{qt} \cdot \cos \varphi_{qt} = 4,5 \cdot 0,53 = 2,38\%,$$

$$u_{qt.r} = u_{qt} \cdot \sin \varphi_{qt} = 4,5 \cdot 0,85 = 3,8\%.$$

7. Qisqa tutashuv qarshiligi

$$Z_{qt} = \frac{U_{qt}}{I_{1nom}} = \frac{0,26 \cdot 10^3}{1,44} = 180 \Omega.$$

8. Qisqa tutashuv qarshiligining aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari

$$r_{qt} = Z_{qt} \cdot \cos \varphi_{qt} = 180 \cdot 0,53 = 95,4 \Omega,$$

$$x_{qt} = Z_{qt} \cdot \sin \varphi_{qt} = 180 \cdot 0,85 = 153 \Omega.$$

9. Yuklama tushganda transformator kuchlanishining nominal o‘zgarishi

$$\Delta U_{1nom} = u_{qt.a} \cdot \cos \varphi_2 + u_{qt.r} \cdot \sin \varphi_2 = 2,38 \cdot 0,8 + 3,8 \cdot 0,6 = 4,18\%.$$

### **Nazorat savollari**

1. Transformatorning birlamchi chulg‘amdagi nominal tok qanday aniqlanadi?
2. Qisqa tutashuv kuchlanishining aktiv va reaktiv tashkil etuvchilari qanday aniqlanadi?
3. Yuklama tushganda transformator kuchlanishining nominal o‘zgarishi qanday aniqlanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA. -2014.-391 b.
2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.

3.J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.

4. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material dlya prakticheskix zanyatiy po kursu «Analiticheskaya elektromexanika»: Uchebnoe posobie. – T.: TashGTU, 2013.
5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

## **2-amaliy mashg'ulot. Elektr motorlarning yuklama rejimlaridagi parametrlarini hisoblash.**

**Maqsad:** Elektr motorlarining yuklama rejimlaridagi parametrlarini hisoblash.

**Vazifa:** Elektr motorlarining nominal  $M_{nom}$  va maksimal  $M_{max}$  momentlar qiymatlarini, nominal  $s_{nom}$  va kritik  $s_{kr}$  sirpanishlarni, shuningdek motoring boshlang'ich ishga tushirish momenti maksimalga teng bo'lishi uchun rotor faza chulg'amiga ulanishi kerak bo'ladigan rezistor qarshiligi aniqlansin.

1-jadvalda AK2 seriyadagi uch fazali faza rotorli asinxron motorlarning texnik ma'lumotlari keltirilgan. Nominal  $M_{nom}$  va maksimal  $M_{max}$  momentlar qiymatlarini, nominal  $s_{nom}$  va kritik  $s_{kr}$  sirpanishlarni, shuningdek motoring boshlang'ich ishga tushirish momenti maksimalga teng bo'lishi uchun rotor faza chulg'amiga ulanishi kerak bo'ladigan rezistor qarshiligini aniqlash talab etiladi; shu rejim uchun mexanik xarakteristika qurilsin va undan nominal moment  $M_{nom}$  ga mos keluvchi sirpanish aniqlansin. Tarmoq kuchlanishi 380 V, chastota 50 Hz; stator chulg'ami “yulduzcha” ulangan. Motoring tarmoqqa to'g'ridan-to'g'ri (reostatsiz) ulagandagi ishga tushirish tokining karraligi  $\lambda = I_{ish.t} / I_{nom} = 7$ ; qisqa tutashuv rejimidagi quvvat koeffitsiyenti  $\cos \varphi_{qt} = 0,5 \cdot \cos \varphi_{nom}$  deb, qabul qilinsin.

1-jadval

Motor turlari	$P_{nom}, kW$	$n_{nom}, ayl/min$	$\eta_{nom}, \%$	$\cos \varphi_{1nom}$	$M_{max}/M_{nom}$	$r_{1.20}, \Omega, 20^\circ C da.$
AK2-81-4	40	1440	90,0	0,84	2,0	0,0725
AK2-82-4	55	1440	90,5	0,84	2,0	0,0390
AK2-91-4	75	1450	90,5	0,85	2,0	0,0326
AK2-92-4	100	1450	90,5	0,85	2,0	0,0210
AK2-81-6	30	960	89,0	0,84	1,8	0,0920
AK2-82-6	40	960	89,0	0,85	1,8	0,0605
AK2-91-6	55	960	89,0	0,86	1,8	0,0590
AK2-92-6	75	960	90,5	0,86	1,8	0,0350
AK2-81-8	22	720	87,5	0,79	1,7	0,1570
AK2-82-8	30	720	87,5	0,79	1,7	0,0935

**Yechish AK2-82-8 motor varianti.**

1. Nominal rejimda motor iste'mol qiladigan quvvat

$$P_{1nom} = \frac{P_{nom}}{\eta_{nom}} = \frac{30}{0,875} = 34,3 \text{ kW}.$$

2. Nominal rejimda motorning iste'mol toki

$$I_{1nom} = \frac{P_{1nom}}{m_1 \cdot U_{1nom} \cdot \cos \varphi_{1nom}} = \frac{34300}{3 \cdot 220 \cdot 0,79} = 66 A.$$

3. Nominal rejimdagi sirpanish

$$S_{nom} = \frac{750 - 720}{750} = 0,04.$$

4. Ishchi temperatura  $75^{\circ}\text{C}$  da stator fazasining aktiv qarshiligi

$$r_1 = r_{1,20} [1 + \alpha(75 - 20)] = 0,0935 \cdot [1 + 0,004 \cdot 55] = 0,0935 \cdot 1,22 = 0,114 \Omega.$$

5. To'g'ridan – to'g'ri (*reostatsiz*) ulashdagi ishga tushirish toki

$$I_{ish.t} = I_{1nom} (I_{ish.t}/I_{1nom}) = 66 \cdot 7 = 462 A.$$

6. Qisqa tutashuv qarshiligi

$$Z_{qt} = \frac{U_1}{I_{ish.t}} = \frac{220}{462} = 0,48 \Omega.$$

7. Qisqa tutashuvning quvvat koeffitsiyenti

$$\cos \varphi_{qt} = 0,5 \cdot \cos \varphi_{1nom} = 0,5 \cdot 0,79 = 0,395; \sin \varphi_{qt} = 0,918.$$

8. Qisqa tutashuv qarshiligining induktiv takshil etuvchisi

$$x_{qt} = Z_{qt} \cdot \sin \varphi_{qt} = 0,48 \cdot 0,918 = 0,44 \Omega.$$

9. Qisqa tutashuv qarshiligining aktiv tashkil etuvchisi

$$r_{qt} = Z_{qt} \cdot \cos \varphi_{qt} = 0,48 \cdot 0,395 = 0,19 \Omega.$$

10. Stator fazasiga keltirilgan rotor fazasining aktiv qarshiligi

$$r'_2 = r_{qt} - r_1 = 0,19 - 0,114 = 0,076 \Omega.$$

11.  $s_{nom} = 0,04$  sirpanishda rotor fazasining aktiv qarshiligi  
 $r'_2/s_{nom} = 0,076/0,04 = 1,9 \Omega$ .

12. Elektromagnit momentining nominal qiymati

$$M_{nom} = \frac{m_1 \cdot U_1^2 \cdot r'_2 \cdot P}{2\pi \cdot f_1 \cdot s_{nom} [(r_1 + r'_2/s_{nom})^2 + x_{qt}^2]} = \\ = \frac{3 \cdot 220^2 \cdot 0,076 \cdot 4}{2 \cdot 3,14 \cdot 50 \cdot 0,04 [(0,114 + 1,9)^2 + 0,44^2]} = 720 N \cdot m.$$

13. Momentning maksimal qiymati

$$M_{max} = \frac{m_1 \cdot U_1^2 \cdot P}{4\pi f_1 \left[ \pm r_1 + \sqrt{r_1^2 + x_{qt}^2} \right]} =$$

$$= \frac{3 \cdot 220^2 \cdot 4}{4 \cdot 3,14 \cdot 50 \left[ \pm 0,114 + \sqrt{0,114^2 + 0,44^2} \right]} = 1640 \text{ N} \cdot \text{m}.$$

14. Kritik sirpanish

$$s_{kr} \approx \pm r'_2/x_{qt} = 0,076/0,44 = 0,17.$$

15. Ishga tushirish momenti maksimal bo'lishi uchun rotor zanjiriga ulanuvchi rezistor qarshiligi  $r_{qo'sh}$  shunday bo'lishi kerakki, bunda rotor fazasining umumiyl aktiv qarshiligi  $x_{qt}$  ga teng bo'lishi zarur. Demak,

$$r_{qo'sh} = x_{qt} - r'_2 = 0,44 - 0,076 = 0,364 \Omega.$$

### **Nazorat savollari**

2. Elektr motorining nominal rejimdagi iste'mol toki qanday aniqlanadi ?
2. Nominal rejimdagi motorning sirpanishi qanday aniqlanadi ?
3. Elektromagnit momentining nominal qiymati qanday aniqlanadi ?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA. -2014.-391 b.

2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.

3.J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.

4. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material dlya prakticheskix zanyatiy po kursu «Analiticheskaya elektromexanika»: Uchebnoe posobie. – T.: TashGTU, 2013.

5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

### 3-amaliy mashg'ulot. Asinxron motorning parametrlarini hisoblash

**Maqsad:** 2 – jadvalda uch fazali rotori qisqa tutashgan asinxron motor parametrlarining quyidagi ma'lumotlari keltirilgan: asosiy magnit oqimi  $\Phi$ , stator chulg'amida ketma-ket ulangan o'ramlar soni  $w_1$ , nominal sirpanish  $s_{nom}$ , qo'zg'almas holatdagi rotor chulg'amida induksiyalanadigan EYuK  $E_2$  va nominal sirpanish bilan aylanayotgan rotorning EYuK  $E_{2s}$ , rotorning  $n_{nom}$  aylanish chastotasidagi EYuK chastotasi  $f_2$ . Ta'minlovchi tarmoqdagi tok chastotasi  $f_1=50\text{ Hz}$ . Har bir variant uchun jadvalda ko'rsatilmagan parametrlarning qiymatlarini aniqlash talab etiladi.

**Yechish** varinat 1.

1. Stator chulg'amining EYuK

$$E_{1f}=4,44 \cdot \Phi \cdot f_1 \cdot w_1 \cdot k_{ch1}=4,44 \cdot 0,028 \cdot 50 \cdot 18 \cdot 0,95=106\text{ V}.$$

2. Nominal aylanish chastotasida rotor chulg'amining EYuK

$$E_{2s}=4,44 \cdot \Phi \cdot f_1 \cdot s_{nom} \cdot w_2 \cdot k_{ch2}=4,44 \cdot 0,028 \cdot 50 \cdot 0,04 \cdot 0,5 \cdot 1=0,12\text{ V}.$$

2-jadval

Parametr	Variantlar									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$\Phi, Vb$	0,028	0,032	0,048	-	0,025	-	-	0,028	0,028	-
$w_1$ , chulg'aml ar soni	18	-	24	16	-	24	18	-	36	18
$k_{ch1}$	0,95	0,96	0,96	0,98	0,98	0,96	0,95	0,95	0,98	0,98
$s_{nom}$	0,04	-	0,05	0,04	-	0,05	-	-	-	-
$2p$	4	6	2	4	-	8	4	8	-	4
$E_{1f}, V$	-	210	-	98	110	200	-	120	-	100
$E_2, V$	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
$E_{2s}, V$	-	-	-	-	-	-	0,13	-	-	-
$f_2, Hz$	-	-	-	-	-	-	2,5	3,2	-	2,5
$n_{nom}$ , <u>ayl</u> <u>min</u>	-	970	-	-	2920	-	-	-	1470	-

3. Qo'zg'almas rotor chulg'amining EYuK

$$E_2 = \frac{E_{2s}}{s_{nom}} = \frac{0,12}{0,04} = 3 V.$$

4. Nominal sirpanishdagi rotor EYuK ning chastotasi

$$f_2 = f_1 \cdot s_{nom} = 50 \cdot 0,04 = 2 Hz.$$

5. Rotoring nominal aylanish chastotasi

$$n_{nom} = n_1 \cdot (1 - S) = 1500 \cdot (1 - 0,04) = 1440 \frac{ayl}{min}$$

### **Nazorat savollari**

1. Asinxron motorining stator chulg'amining EYuK qanday aniqlanadi ?
2. Motoring nominal aylanish chastotasida rotor chulg'amining EYuK qanday aniqlanadi?
3. Motor rotoring nominal aylanish chastotasi qanday aniqlanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA. -2014.-391 b.
2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.
- 3.J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.
4. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material dlya prakticheskix zanyatiy po kursu «Analiticheskaya elektromexanika»: Uchebnoe posobie. – T.: TashGTU, 2013.
5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

### **4-amaliy mashg'ulot. Sinxron motoring parametrlarini hisoblash**

**Maqsad:** sinxron motoring aylanish chastotasi, chulg'amidagi nominal va ishga tushirish toklari, maksimal, nominal, sinxron, ishga tushirish momentlarini hamda sinxronizmga kirayotgandagi ( $s = 5\%$ ) asinxron momentni aniqlash.

**Vazifa:** sinxron motorning aylanish chastotasi, stator chulg'amidagi nominal va ishga tushirish toklari, maksimal, nominal, sinxron, ishga tushirish momentlarini hamda sinxronizmga kirayotgandagi ( $s = 5\%$ ) asinxron momentni aniqlansin.

Uch fazali sinxron dvigatearning nominal parametrlarining qiymatlari quyidagicha: nominal quvvat  $P_{nom} = 500 \text{ kW}$ , qutblar soni  $2p=12$ , FIK  $\eta_{nom}=93,7\%$ ; ishga tushirish tokining karraligi  $I_p/I_{nom}=5,2A$ , ishga tushirish momentining karraligi  $M_p/M_{nom}=1,0$ ; maksimal sinxron moment  $M_{max}/M_{nom}=1,9$ , asinxron moment (sirpanish  $s=5\%$ )  $M_{5\%}/M_{nom}=1,3$ ; stator chulg'ami "yulduz" ulangan. Tarmoqdagi kuchlanishi  $U_t=10 \text{ kV}$ , chastota 50 Gts, quvvat koeffitsienti  $\cos\varphi_1 = 0,81$ .

### **Yechish.** Aylanish chastotasi

$$n_1 = 60f/p = 60 \times 50/6 = 500 \text{ ayl/min.}$$

2. Nominal yuklamada motor iste'mol qilayotgan quvvat

$$P_{1nom} = P_{nom}/\eta_{nom} = 500/0,937 = 534 \text{ kW.}$$

3. Nominal yuklamada stator zanjiridagi tok I

$$I_{1nom} = P_{1nom} / (\sqrt{3}U_1\cos\varphi_1) = 534/(1.73 \times 10 \times 0.8) = 39 \text{ A.}$$

4. Ishga tushirish toki

$$I_p = I_{1nom} (I_p/I_{nom}) = 39 \times 5,2 = 203 \text{ A.}$$

5. Nominal yuklamada motor validagi moment

$$M_{nom} = 9,55P_{nom}/n_1 = 9,55 \times 500 \times 10^3/500 = 9550 \text{ H*m.}$$

6. Maksimal (sinxron) moment

$$M_{max} = M_{nom} (M_{max}/M_{nom}) = 9550 \times 1,9 = 18 145 \text{ N*m.}$$

7. Ishga tushirish momenti

$$M_p = M_{nom}(M_p/M_{nom}) = 9550 \times 1,0 = 9550 \text{ N*m}$$

8. Sinxronizmga kirishdagi moment (sirpanish 5% bo'lqandagi asinxron moment)

$$M_{5\%} = M_{nom}(M_{5\%}/M_{nom}) = 9550 \times 1,3 = 12 415 \text{ N*m.}$$

**Javob:**  $n_1 = 500 \text{ ayl/min.}$ ;  $I_{1nom} = 39 \text{ A}$ ;  $I_p = 203 \text{ A}$ ;  $M_{nom} = 9550 \text{ H*m}$ ;  $M_{max} = 18 145 \text{ N*m}$ ;  $M_p = 9550 \text{ H*m}$ ;  $M_{5\%} = 12 415 \text{ N*m}$

### **Nazorat savollari:**

1. Nominal yuklamada motor iste'mol qilayotgan quvvat qanday topiladi?
2. Sinxron motorning maksimal (sinxronnyiy) momenti qanday aniqlanadi?
3. Sinxron motorning sinxronizmga kirishdagi moment (sirpanish 5% bo'lgandagi asinxron moment) qanday topiladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA. -2014.-391 b.
2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.
3. J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.
4. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material dlya prakticheskix zanyatiy po kursu «Analiticheskaya elektromexanika»: Uchebnoe posobie. – T.: TashGTU, 2013.
5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

### **5-amaliy mashg'ulot. Sinxron motorning issiqlik hisobi**

**Maqsad:** sinxron motorning issiqlik hisobini amalga oshirish.

**Vazifa:** sinxron motorning issiqlik hisobini amalga oshirib parametrlari aniqlansin.

Motorning nominal qiymatlari

Vazifasi	motor
Nominal ish rejimi	uzoq muddatli
Nominal quvvati $P_2$ , kW	200
Statorning fazalar soni $m_1$	3
Stator chulg'amining ularishi	yulduz

Chastota f, Gz	50
Quvvat koeffitsiyenti $\cos \varphi$	0,8
Nominal liniya kuchlanishi $U_{\pi}$ , V	400
Aylanish chastotasi $n_1$ , ayl/min	1000
Qo'zg'alish usuli	Maxsus chulg'amdan
Tashqi ta'sirlardan himoyalanish darajasi	IP23
Sovitish usuli	IC01
Montaj qilish usuli	IM1001
Klimatik shartlari va joylanish kategoriyasi	Y2

## **Issiqlik va ventilyatsion hisoblari**

### ***Issiqlik hisobi***

Statorning asosiy va qo'shimcha chulg'amlaridagi isroflar

$$P'_{M1} = m_1 m'[I^2 r_1 + (I_{ph} / ) r_d] = 31,48 [360,8^2 \cdot 0,0138 + (61,4/)^2 \cdot 0,0039] = 7998 \text{ W},$$

bu yerda  $m'_t = 1,48 - B$  sinf izolyatsiyaga issiqlikga chidamlilik koefitsiyenti

Statorning qo'shimcha chulg'amidan ta'minlangandagi qo'zg'atish chulg'amidagi isrof

$$P_{\Pi} = I_{ph}^2 r_{\Pi} + 2 I_{ph} = 61,4^2 0,733 + 2 \cdot 61,4 = 4213 \text{ W}.$$

Stator aktiv qismining shartli ichki yuzasi

$$S_{n1} = \pi D_1 \ell_1 = \pi 518,2300 = 4,88 \cdot 10^5 \text{ mm}^2.$$

Ko'dalang kesimning shartli perimetri

$$\Pi_1 = 2 (h_{n1} + b_{n1}) = 2 (30,2 + 14,3) = 89 \text{ mm}.$$

Pazlar sovishining shartli yuzasi

$$S_{n,n1} = z_1 \Pi_1 \ell_1 = 7289300 = 19,22 \cdot 10^5 \text{ mm}^2.$$

Stator tirsak qismining shartli sovish yuzasi

$$S_{n1} = 4\pi D_1 \ell_1 = 4\pi 518,2135,8 = 8,84 \cdot 10^5 \text{ mm}^2.$$

Staninadagi qovurg'lar sovishining shartli yuzasi

$$S_{main} = \pi D_{h1} (\ell_1 + 2\ell_{B1}) = \pi 660 (300 + 2135,8) = 11,85 \cdot 10^5 \text{ mm}^2.$$

Chulg'am aktiv qismi va po"atdag'i iIrof hosil qilgan hamda chulg'am tirsak qismining sovish yuzasiga taalluqli solishtirma issiqlik oqimi

$$p_{\text{п1}} = 5,12 \cdot 10^{-3} \text{ Bt.}$$

Stator aktiv qismining ichki yuzasidagi temperaturaning mashina ichidagi havo temperaturasiga nisbatan oshuvi

$$\Delta t_{\text{п1}} = 46,5 \text{ }^{\circ}\text{C},$$

bu yerda  $\alpha_1 = 17,5 \cdot 10^{-5} \text{ W/mm}^2 \text{ *grad}$  – stator yuzasidagi issiqlik uzatish koefitsiyenti.

Stator pazi izolyatsiyasining bir tomonlama qalinligi

$$b_{\text{н1}} = (b_{\text{п1}} - N_{\text{ш}} b) / 2 = (14,3 - 1 \cdot 2,8) / 2 = 4,35 \text{ mm.}$$

Stator pazi izolyatsiyasi va dumaloq simli g'altakdagi temperaturaning tushuvi

$$\Delta t_{\text{и..п1}} = 49,2 \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

Stator tirsak qismining tashqi yuzasidagi temperaturaning mashina ichidagi havo temperurasiga nisbatan oshuvi

$$\Delta t_{\text{п1}} = p_{\text{п1}} / \alpha_1 = 5,12 \cdot 10^{-3} / 17,5 \cdot 10^{-5} = 29 \text{ }^{\circ}\text{C.}$$

Dumaloq simli g'altak tirsak qismidagi izolyatsiya temperaturaning tushuvi

$$\Delta t_{\text{и..п1}} = 38,4 \text{ }^{\circ}\text{C.}$$

Chulg'am o'rtacha temperaturaning mashina ichidagi havo temperurasiga nisbatan oshuvi

$$\Delta t'_1 = (\Delta t_{\text{п1}} + \Delta t_{\text{и..п1}}) + (\Delta t_{\text{п1}} + \Delta t_{\text{и..п1}}) = (46,5 + 49,2) + (29 + 38,4) \text{ }^{\circ}\text{C.}$$

Mashina ichida havoga uzatiladigan quvvat isrofi

$$P'_{\Sigma} = \kappa (P'_{M1} + P_{c\Sigma}) + P'_{M1} + P'_{M2} + P_{MX\Sigma} + P_{\Delta} = 7998 \text{ W.}$$

Mashina ichidagi temperaturaning tashqi havo temperurasiga nisbatan o'rtacha oshuvi

$$\Delta t_B = 10,4 \text{ }^{\circ}\text{C.}$$

Chulg'am o'rtacha temperaturaning tashqi havo temperurasiga nisbatan oshuvi

$$\Delta t_1 = \Delta t'_1 + \Delta t_B = 79,7 + 10,4 = 90,1 \text{ }^{\circ}\text{C.}$$

### ***Qo'zg'atish chulg'ami***

Simi izolyatsiyalangan ko'p qatlamlili g'altakni sovitishning shartli yuzasi

$$S_{\text{п2}} = 2p\ell_{cp..п} h_K = 2 \cdot 2 \cdot 924 \cdot 130 = 72,1 \cdot 10^4 \text{ mm}^2.$$

Chulg'amno sovitish yuzasiga bog'liq bo'lган chulg'amdag'i isrof hosil qilgan solishtirma issiqlik oqimi

$$p_{\text{н}} = \kappa P_{\text{н}} / S_{\text{н2}} = 0,9 \cdot 4213 / 72,1 \cdot 10^4 = 52,6 \cdot 10^{-4} \text{ W/mm}^2 .$$

G'altakning issiqlik uzatish koeffitsiyenti

$$\alpha_T = 14,3 \cdot 10^{-5} \text{ W/(mm}^2 * ^\circ\text{C}).$$

Chulg'am tashqi yuzasidagi sovitishdagi temperaturaning oshuvi

$$\Delta t_{\text{нн}} = p_{\text{н}} / \alpha_T = 52,6 \cdot 10^{-4} / (14,3 \cdot 10^{-5}) = 36,8 ^\circ\text{C}.$$

Simi izolyatsiyalangan ko'p qavatli g'altak izolyatsiyasining ichki va tashqi temperurasining tushuvi

$$\Delta t_{\text{нн}} = 13,2 ^\circ\text{C}.$$

Chulg'am temperaturaning mashina ichki havo temperurasiga nisbatah o'rtacha oshuvi

$$\Delta t_B = \Delta t_n + \Delta t_{\text{нн}} = 60 ^\circ\text{C}.$$

Chulg'am temperaturaning sovituvchi havo temperurasiga nisbatah o'rtacha oshuvi

$$\Delta t_n = \Delta t'_n + \Delta t_B = 60 + 10,4 = 70,4 ^\circ\text{C}.$$

### **Ventiyatsiya hisobi**

Zarur bo'lgan havo sarfi

$$V'_B = \kappa_1 (D_{H2} / 100)^2 10^{-2} = 3,5 (514,2 / 100)^2 10^{-2} = 0,93 \text{ m}^3 / \text{s};$$

bu yerda  $\kappa_1 = 3,5$  – aylanish chastotasiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent.

Havoning napori

$$H = 7,85 (n_1 / 1000)^2 (D_{H2} / 100)^2 = 7,85 (1000 / 1000)^2 (514,2 / 100)^2 = 208 \text{ Pa}.$$

### **Nazorat savollari:**

1. Chulg'am o'rtacha temperaturaning mashina ichidagi havo temperurasiga nisbatan oshuvi qanday aniqlanadi?
2. Sinxron motorda zarur bo'lgan havo sarfi qanday aniqlanadi?
3. Sinxron motorda havoning napori qanday aniqlanadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Ekektromexanika. Darslik.–Toshkent: Shams ASA. -2014.-391 b.
2. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik. – Toshkent: 2011.-408 b.
3. J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.

4. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material dlya prakticheskix zanyatiy po kursu «Analiticheskaya elektromexanika»: Uchebnoe posobie. – T.: TashGTU, 2013.

5. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Ziyoxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.

## V. KEYSALAR BANKI

### Keys-1.

**Mavzu: Elektr motorning energiya samaradorligini aniqlash**

**Vaziyat:** Toshkent issiqlik elektr stantsiyasida texnologik mashinalarning elektr motorlarida energiya samaradorligi pasayib ketganligi aniqlandi.

**Ushbu sababini aniqlash uchun topshiriqlar:**

1. Elektr sxemasi va nominal ko'rsatkichlari yuqorida keltirilgan elektr motor uchun:

1.1. Elektr ta'minotining kuchlanishini tanlang.

1.2. To'liq quvvat, quvvat koeffitsienti  $\text{Cos}\varphi$ , ishga tushirishdagi isroflar  $\Delta U\%$  garmonikalar ( $uk, k=nm\pm 1$ )ning ta'siridagi kuchlanish pasayishini aniqlang.


1.3. Hisoblangan parametrlarning Xalqaro standartlarga muvofiqligini aniqlang.

1.4.  $\text{Cos}\varphi\Sigma 0,95$  bo'lishini ta'minlang.

2. Texnologik mashinalarning elektr motorlarining energiya samaradorligi quyidagi kriteriyalar bo'yicha aniqlang.

2.1. Texnologik mashinalarning elektr motorlarining energiya samaradorligini aniqlash quyidagi kriteriyalar bo'yicha amalga oshiriladi:

- elektr energiya ta'minoti chastotasining sifati
- energiya samarador elektr motorlarni qo'llash
- energiya samarador o'zgartkichlarni qo'llash
- elektr motorning energetik parametrlarini (foyDALI ish koeffitsienti (FIK)ning maksimumi, elektr isroflarining minimumi, iste'mol qilinayotgan quvvatning minimumi, quvvat koeffitsientining maksimumi va x.k.).
- ta'minlovchi optimal bosharish algoritmlarini amalga oshirish



Asinxron motor: $U_m$ ,V; $\eta_d$ ,%; $\cos \varphi_d$ ; Pd, kVt; k; N	Rostlagich: $U_H$ ,V; $I_H$ ,A	1f yuklama: U,V; $P_{1\phi H}$ ,kVt; $\cos \varphi_{1\phi H}$	Transformator: $S_{TP}$ ,kVA; $u_k$ ,	3 fazali yuklaa: P, kVt; $\cos \varphi$
380/220	400	380	63	24
74.6				
0.72		11		
11	45		6.1	0.66
5.9		0.75		
30				

### Keys-2.

#### **MAVZU: TMDDRIV RUSUMLI 6-10 KV KUCHLANISHDA**

#### **ISHLAYDIGAN CHASTOTA O'ZGARTKICH**

Chastota o'zgartkich tiristorli qurilmalar asosida yaratilgan bo'lib, hozirda tiristorli IGBT texnologiya asosida yaratilgan kuch kalit bilan birga foydalaniadi. Bu texnologiya “TOSHIBA” kompaniyasi tomonidan birinchi bo'lib ishlab chiqilgan.


TMdrive “TOSHIBA” va “MITSUBISHI” kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan va yuqori quvvatli hamda 6-10 kV kuchlanishda ishlaydig'an asinxron motorli avtomatlashtirilgan tizimlarda qo'llaniladi. Asinxron motorning

quvvat o'zgarishi oralig'i yuzlab kilovattdan o'nlab megovattgacha bo'lishi mumkin. Yuqori kuchlanishli chastota o'zgartkichning qo'llanilishi:

gidrozarb va dinamik o'ta yuklanishlarni bartaraf qiladi;

nasos, kompressor va boshqa o'zgaruvchan yuklanishlarda ishlaydigan agregatlarda elektr energiyadan iqtisod qilishga olib keladi;

elektr motorlarning ishlash muddatlarini oshiradi va ishga tushirish hamda ish jarayonlarini optimallash natijasida kam elektr energiya iste'mol qiladi.



### VAZIFA:

1. Mazkur o'zgartkichning fuknktsional imkoniyatlari va qo'llash mumkin bo'lган sohalarini aniqlab bering.
2. O'zgartkich elektr motorlarni ishga tushirish jarayonnida qisqa tutashuv sodir bo'ldi. Qisqa tutashuvning kelib chiqish sababini aniqlang.

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Mazkur o'zgartkichning funksional imkoniyatlari va qo'llash mumkin bo'lган sohalarini aniqlab bering.

- Keysdagi muammoni keltirib chiqqagan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari


### Keys-3.

#### **Mavzu: "NORMA" RUSUMLI ChASTOTA O'ZGARTKICh**

"NORMA" rusumli chastota o'zgartkich elektron statik qurilma bo'lib, uning chiqishida amplitudasi va chastotasi o'zgaradigan o'zgaruvchan tok kuchlanishi hosil bo'ladi.

Asinxron motor stator chulg'amiga berilayotgan amplitudasi va chastotasi o'zgaradigan o'zgaruvchan tok kuchlanishi stator chulg'amida elektr va magnit ko'rsatkichlarining o'zgarishiga olib keladi va natijada motor tezligi o'zgaradi.

"NORMA" rusumli chastota o'zgartkichi tarkibiy quyidagi elektr qurilmalardan ibrat: uch fazali tiristorli to'g'rilaqich, kuchlanish avtonom invertori, tok va kuchlanish o'lchov o'zgartkichlari, markaziy boshqarish pulti, analog-raqamlı va raqaml-analog o'zgartkichlar



"NORMA" rusumli chastota o'zgartkichning funktsional sxemasi.

- Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:
- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

#### Keys-4.

### MAVZU:.PCH-TTPT RUSUMLI TEZLIGI CHASTOTANI O'ZARTIRIB ROSTLANADIGAN ASINXRON MOTORI

**PCh-TTPT** rusumli tezligi chastotani o'zartirib rostlanadigan asinxron elektr motorning asosini yarim o'tkazgichli bilvosita chastota o'zgartkich tashkil etadi. DSP tipdagи kontrollerningishlatilishi asinxron elektr motoring sozlanishini osonlashtiradi va shuningdek ishonchlilik darajasini oshiradi.

Kuch yarim o'tkazgichli modullarni sovutishda ilg'or usullarni qo'llash bu elementlarning komfort issiqlik rejimlarda ishlashini ta'minlaydi. Asinxron elektr motor chastota o'zgartkichida tezlikni rostlash jarayonida kuchlanishni rostlash vektorli usulda amalga oshirilishi tezlikni aniq darajada bo'lishini ta'minlaydi. Elektr motorning ishonchli ishlashini, chastotaning kichik qiymatlarida momentni oshirishini va dinamik isroflarning kamayishi shartlari to'liq bajariladi.

### **Keysni bajarish bosqchilari va topshiriqlar:**

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablar va hal etish yo'llarini jadval asosida izohlang (individual va kichik guruhda).

Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo'llari

## VII. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Transformator	Kuchlanishning biror bir qiymatini boshqa qiy-matga aylantirib bera-digan elektromagnit sta-tik apparat	Electromagnetic Staat Apparatus, which makes a value of voltage tangibly different
Asinxron mashina	Stator magnit maydoni-ning aylanish chastotasi rotoring aylanish chas-totasiga teng bo'lmanan mashina	The rotation frequency of the magnetic field of the magnetic field of the magnetic field is not equal to the rotation of the rotor
Asinxron motor	Elektr energiyasini me-xanik energiyaga aylan-tiradigan elektromexa-nik o'zgartkich	An electromechanical transducer that turns electrical energy into mechanical energy
Asinxron generator	Mexanik energiyasini elektr energiyaga aylan-tiradigan elektromexa-nik o'zgartkich	Electromechanical transducer that transforms mechanical energy into electricity
Sinxron motor	Elektr energiyasini me-xanik energiyaga aylan-tiradigan elektromexa-nik o'zgartkich	An electromechanical transducer that turns electrical energy into mechanical energy
Asinxron motorning energetik ko'rsatkichlari	Asinxron motorning foydali va quvvat koeffisientlari	useful coefficient and power coefficient of asynchronous motor
Asinxron motorlarda reaktiv quvvatni kompensasiyalash	Asinxron motorlarga berilayotgan kuchlanish qiymatini motorning yuklanish darajasiga bog'liq ravishda rostlash	Regulation of voltage supplying asynchronous motor related to motor load degree.
Sinxron mashina	Stator magnit maydoni-ning aylanish chastotasi rotoring aylanish chas-totasiga teng bo'lgan mashina	The rotation frequency of the magnetic field of the magnetic field is equal to the rotation of the rotor
Stator	Mashinaning qo'zg'almas qismi	The driving force of the machine
Rotor	Mashinaning aylanuvchi qismi	The rotating part of the machine

Elektr motorining xarakteristikaları	Elektr motorini eks-pluatatsiya qilish jarayonidagi asosiy xarakteristikalar	The main characteristics of the electric motor excavation process
Transformatorning chulg'ami	Asosiy qism hisoblanib undan tok oqganda MYuK hosil bo'ladi	When the main part is overcurrent, the burner is generated
Transformatorning po'lat o'zagi	Asosiy qism hisoblanib magnit maydonni kuchaytiradi	The main part is magnetic field
Mashinaning sovi-tish tizimi	Mashinaning qizishini oldini olish uchun mo'ljallangan qismlar	Parts to avoid the heat of the machine
Stator chulg'ami	Asosiy qism hisoblanib undan tok oqganda MYuK hosil bo'ladi	When the main part is overcurrent, the burner is generated
Val	Aylanuvchi qism bo'lib unga rotor mahkamlanadi	The rotating part is fastened to the rotor
Kollektor	Mis plastinalardan iborat bo'lib motor rejimida o'zgarmas tokni o'zgaruvchan tokga aylantiradi generator reji-mida esa aksincha	The copper-plated, in the engine mode, turns the constant current into a variable current, while in the generator mode, on the contrary
Taxogeneratorlar	aylanish tezligini elektr signaliga o'zgartiruvchi generator rejimida ishlaydigan mikromashinalar	Micro machines which work as a generator and transform the speed to electrical signal
Sirpanish	Stator magnet maydoni-ning aylanish chastotasi va rotor aylanish chasto-tasi orasidagi farq	The difference between the rotation frequency of the magnetic field of the stator magnet and the frequency of rotation
Kompensatsion qurilmalar	elektr tarmog'i va unga ulangan asinxron motorlarning quvvat koeffitsientlarini oshirishga xizmat qiluvchi kondensator	Condenser or synchronous compensators which help to increase power coefficient of electrical power supply or asynchronous motors

	batareyalari va sinxron kompensatorlar	
Sinxron mashinaning qo'zg'atish chulg'ami	Asosiy magnit maydonni hosil qiluvchi chulg'am	The main beacon of magnetic field
Sinxron tezlik	Stator magnit maydoni-ning aylanish chastotasi	Stator magnetic field rotation frequency

## **VIII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **Maxsus adabiyotlar**

1. Alimxodjayev K.T., Pirmatov N.B., Zioxodjayev T.I. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2018.- 344 b.
2. Pirmatov N.B., Zayniyeva O.E. Elektromexanika asoslari. –T.: Ma’naviyat, 2015. – 104 b.
3. Berdiyev U.T., Pirmatov N.B. Elektromexanika. –T.: Shams-ASA, 2014. -391 b.
4. J.B.Gupta.Theory & Performanse of Elektrical Mashine.Published by S.K.Kataria & Sons. 2015.
5. Salimov D.S, Pirmatov N.B., Mustafakulova G.N. Didakticheskiy material
6. Для практических занятий по курсу «Аналитическая электромеханика»: – Т.: ТамГТУ, 2013. – 136 с.
7. Salimov J.S., Pirmatov N.B. Ekektr mashinalari. Darslik.– Toshkent: 2011.- 408 b.
8. Imomnazarov A.T., A’zamova G.A. Asinxron motorlarning energiya tejamkor ish rejimlari. Monografiya. - Toshkent: ToshDTU, 2014. – 140 b.
9. Hoshimov O.O., Imomnazarov A.T. Ekektromexanik tizimlarda energiya tejamkorlik. 2- nashr. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 155 b.
10. A.A. Khfshumov, I.K. Pampias. Energsaving Solid State Drives Of Asynchronous
11. Motors For Technological Machines And Installations. ISBN 978-960-93. Athens, 2011.

### **Internet resurslari:**

1. <http://www.Ziyonet.uz>
2. <http://dhees.ime.mrsu.ru>,
3. <http://rbip.bookchamber.ru>,
4. <http://energy-mgn.nm.ru>,
5. <http://booket.ru>,
6. <http://unilib.Ru>